



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziyo ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «17» август

VI-34-75-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

**Sportning yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol hamda “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish maqsadida aholi punktlarida, har bir mahalla va tuman (shahar)da jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida**

Sportning yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol hamda “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish maqsadida aholi punktlarida, har bir mahalla va tuman (shahar)da jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari A.Arabovning hisoboti xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining yig‘ilishida eshitilganligini va bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining yig‘ilishi 2021-yil 4-avgust kuni ZOOM dasturi orqali o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Termiz shahar va tumanlar hokimlari:

bir oy muddatda ishga tushirilmagan 194 ta “Street-Workout”, 23 ta stritbol, 72 ta badminton, 39 ta mini-futbol maydonlarini barpo etish hamda 36 ta fitnes zallarini tashkil etish va ishga tushurish ishlarini jadallashtirsin;

joriy yil yakuniga qadar umumiy qiymati 102,4 mlrd. so‘m bo‘lgan 58,38 km. 15 ta “Salomatlik yo‘laklari”ni tashkil etish bo‘yicha boshlangan ishlarning yakuniga etkazilishini ta’milasin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-soni Farmoniga asosan har chorakda har bir tuman (shahar)da “Sog‘lom turmush tarzi rivojlangan mahalla” tanlovinini tashkil etsin;

“Mahalla” xayriya jamoat fondi mablag‘lari hisobidan “Sog‘lom turmush tarzi rivojlangan mahalla” tanlovida 1-o‘rinni egallagan mahallani 10 mln. so‘m, 2-o‘rinni olgan mahallani 5 mln. so‘m va 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan mahallani 3 mln. so‘m miqdorida pul

mukofoti bilan rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin;

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi bayrami munosabati bilan haftada bir marotaba aholi o‘rtasida velomarafon musobaqalarini tashkil etsin.

3. Viloyatdagi barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining bo‘linmalari, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli Farmoni bilan 2021-yil 1-yanvardan barcha davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimga “Sport targ‘ibotchisi” qo‘srimcha vazifasini yuklash va uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama berilishi belgilanganligini inobatga olib, o‘zлari rahbarlik qilayotgan mehnat jamoasidagi xodimga “Sport targ‘ibotchisi” qo‘srimcha vazifani yuklab va uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama belgilash choralarini ko‘rsin.

4. Viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i J.To‘rayev, Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari A.Arabov muammo va takliflarini inobatga olib, sportning yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol hamda “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish maqsadida aholi punktlarida, har bir mahalla va tuman (shahar)da jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish ishlari tahlilini yuritsin va bu bo‘yicha viloyat hokimligiga taklif kiritib borsin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingbo耶ev), “Ishonch” televideniyesi (A.Qodirov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Ya.Xudoyqulov), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga bu borada amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy gazetalar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Qobulova zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Кенгаш раиси



Боболов Т. А.